O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI GEOGRAFIYA KAFEDRASI
O'ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

«ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA JAHON GEOGRAFIYASI: DAVR KASHFIYOTLARI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI»

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

«ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БАБУР И МИРОВАЯ ГЕОГРАФИЯ: ЭПОХИ ОТКРЫТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ»

международная научно-практическая конференция

«ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR AND WORLD GEOGRAPHY: DISCOVERIES AND DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF THE ERA»

International Scientific and Practical Conference

XODIMLAR BO'LIMI
ASLIGA TO'G'RI

18-19 oktabr
Farg'ona-2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

GEOGRAFIYA KAFEDRASI

O'ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

«ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA JAHON GEOGRAFIYASI: DAVR KASHFIYOTLARI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI»

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

«ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БАБУР И МИРОВАЯ ГЕОГРАФИЯ: ЭПОХИ ОТКРЫТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ»

материалы международной научно-практической конференции

«ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR AND WORLD GEOGRAPHY: DISCOVERIES AND DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF THE ERA»

Materials of the International Scientific and Practical Conference

XODIMLAR BO'LIMI

Farg'ona shahri, 2024-yil 18-19 oktober

ASLIGA TO'G'RI

Bayqabilov X.M. *
(Shahrisabz davlat pedagogika instituti, O'zbekiston)

"BOBURNOMA" ASARIDA KOBUL SHAHRI VA VILOYATINING TABIIY GEOGRAFIK TAVSIFI VA LISONIY TALQINI
ЕСТЕСТВЕННО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ И ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ Г. КАБУЛА И ПРОВИНЦИИ В "БАБУРНАМЕ"
NATURAL GEOGRAPHICAL DESCRIPTION AND LINGUISTIC INTERPRETATION OF KABUL CITY AND PROVINCE IN "BABURNAMA"

Annotatsiya: *maqolada "Boburnoma" asaridagi Kobul shahri va viloyatining tabiiy geografik tavsifi va lisoniy talqini yoritilgan. Shunigdek, maqolada "Kobul" so'zining lugaviy ma'nosi hamda lingvistik tahlili bayon etilgan.*

Аннотация: *в статье рассмотрено естественно-географическое описание и лингвистическая интерпретация города и района Кабула в произведении «Бобурнома». Кроме того, в статье описывается лингвистическое значение и лингвистический анализ слова «Кабул».*

Abstract: *the article describes the natural geographical description and linguistic interpretation of Kabul city and region in the work "Boburnoma". In addition, the article describes the linguistic meaning and linguistic analysis of the word "Kabul".*

Kalit so'zlar: *"Boburnoma", shahar, viloyat, tuman, Kobul, Hind viloyati, Hindikush tog'i, Gazni, Lamg'onot, Purshovar, Qunduz, Andarob viloyati.*

Ключевые слова: *«Бобурнома», город, район, район, Кабул, Хиндский район, гора Гиндукуш, Газни, Ламганот, Пуршовар, Кундуз, Андарабский район.*

Key words: *"Boburnoma", city, region, district, Kabul, Hind region, Hindukush mountain, Ghazni, Lamganot, Purshovar, Kunduz, Andarab region.*

Kirish. Ma'lumki, har qaysi yozuvchi yoki shoir o'z yurtini badiiy asarlarida ifoda etadi. Xususan, leksik sathga oid bo'lgan atoqli otlar, ya'ni onomastik birliklar badiiy matnda o'ziga xos estetik vazifa bajaradi va turli ma'no nozikliklarining yuzaga chiqishiga xizmat qiladi. O'zbek tilidagi onomastik birliklar ichida salmoqli qismini geografik joylarga qo'yilgan maxsus nomlar – toponimlar tashkil etadi. Mutaxassislar fikricha, badiiy matnda toponimlar muayyan obyektning nomigina bo'lib qolmasdan, balki yozuvchining xilma-xil badiiy niyatlarini ta'kidlash uchun ham xizmat qiladi []. Toponimlar o'xshatish etaloni bo'lib kelganda ijodkorning aytmoqchi bo'lgan fikri obrazli ifodalanadi hamda badiiy-estetik quvvat, lingvopoetik salmoq nuqtai nazardan matn badiiyligini ta'minlaydi. Biz quyida "Boburnoma" asarining Kobul viloyatiga bag'ishlangan ikkinchi qismidagi Kobul shahri va viloyati xususidagi tabiiy geografik tavsifi hamda lisoniy talqini haqida fikrlarimizni sharhlashni lozim topdik.

Asosiy qism. Tabiiy geografiyada "taqqoslash uslubiyati asoschisi" hisoblanmish vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub avtobiografik ruhdagi tarixiy-geografik asar "Boburnoma" alohida ahamiyat kasb etadi. Asar 3 ta qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi Farg'ona viloyati, ikkinchi qismi Kobul viloyati va uchinchi qismi Hindiston viloyatiga bag'ishlangan.

Kobul viloyati yoritilgan ikkinchi qismidagi voqealar 1503-1523-yillarni o'z ichiga oladi. Asarda Kobul va Gazna viloyatlarini ishgol etganini quyidagicha izohlaydi: "*Rabbi-ul-avval oyining avoxirida Tengri taolo fazl va karami bila Kobul va Gazni mulk va viloyatini bejang va fidol muyassar va musahhar qildi*"[1; 134-b].

* **Bayqabilov Xusnudin Mardanovich**, - Shahrisabz davlat pedagogika instituti,"Geografiya" kafedrasi dotsenti, g.f.f.d. (PhD)

ASLIGA TO'G'RI

Shundan song, Bobur har bir geografik obyekt yoki joy nomlarini asarining boshidan berib keladigan izchillikdagi tavsif bilan davom ettiradi "[1; 134-135-b] .

"*Kobul viloyati to'rtinchi iqlimdandur. Ma'muraning o'rtasida tushubtur. Sharqi Lamg'onot va Purshovar va Xashang'ar va ba'zi Hind viloyatidur. G'arbi ko'histonlardurkim, Karnud va G'or ul ko'histondadur. Bu tarixda xazora va nakdariy qavmining ma'man va maskani bu tog'lardur. Shimoli Qunduz va Andarob viloyatidur, Hindikush tog'i vositadur. Janubi Farmul va Nagar va Bannu va Afg'onistondur*". Ushbu iqlimiy va geografik tavsifdan ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur Kobul viloyati haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lgan. "Boburnoma" asaridagi 1503-yillardagi voqealar tafsilotidan bilish mumkin-ki, Afg'oniston mamlakati xalq nomi bilan atalganligi va Kobul viloyatining janubida yashashi shu o'rinda oydinlashadi (1-jadval).

Shunigdek, "Boburnoma" asarida Kobul shahrining tabiiy geografik tavsifini quyidagi baytdan ham bilib olishimiz mumkin:

"*Mullo Muhammad Tolib muammoyi Kobul arkining ta'rifida bir baytni Badi'uzzamon mirzo otiga bog'lab o'qur edi. Bayt budurkim:*

Bixor dar arki Kobul may, bigardon kosa paydarpay,

Ki, ham ko'h astu ham daryovu ham shahar astu ham sahro".

Ma'nosi:

Kobul arkida may ichgin, aylansin kosa paydar-pay,

Ko'rinar bundan ham tog'u, ham daryo, va ham shaharu va ham sahro.

Darhaqiqat, Kobul arki – Bolohisor shunday balandlikdaki, undan tevarak-atrof barilla ko'rinib turgan "[1; 135-b].

1-jadval.

"Boburnoma" asarida Kobul shahri (qal'asi) va viloyatining tabiiy geografik va lisoniy tavsifi

№	Tabiiy-geografik va lisoniy tavsifiy birliklar	Asardagi ta'rifu-tavsif
1	Orografik	*Kobul viloyatining sharq tarafidag'i tog'lari ikki turlukdur; g'arb tarafidagi tog'lari ikki turlukdur Andarob va Xost va Badaxshonot tog'lari tamom archaliq qalin chashmaliq, yumshoq pushtaliq tog'lardur.*
2	Gidrologik	*Qal'aning janubida Shohi Kobulning sharqida bir ulug' ko'l tushubtur. Girdo-girdi bir shar'iy yovushur. Shohi Kobul sari boqa uch kichikrak chshma chiqar, ikkisi Gulkina navohisidadur.*
3	Botanik	*Kobulning ravochi xo'b bo'lur, behi bila olusi ham yaxshidur. Bodringi dag'i yaxshi bo'lur. Bir nav uzum bo'lur, obi angur derlar, xeyli yaxshi uzumdir.*
4	Zoologik	*Robai parron bo'lur. Robai parron bir jonivoredur, mushukdin ulug'roq, ikki qo'li bila ikki butining orasida pardadur, shapparaning qanotidek, doim kelturur edi. Derlarkim, u yig'ochdan-yig'ochga nishebga boqa bir gaz otimi uchar. Men (o'zim) uchqonini ko'rmadim. Yig'ochqa qo'yduk, chust yormashib chiqti, andin quvladilar, qanotini yoyib, uchqandek etib, beozor tushti.*
5	Iqlimiy	*Bisyor latif havosi bor. Kobul havosidek havoliq yer olamda ma'lum emaskim, bo'lg'ay. Yozlarda kechalari po'stinsiz yotib bo'lmas. Kishlar agarchi qori aksar ulug' tushar, vale mufrit sovug'i yoqtur. Samarqand va Tabriz ham xushhavoliqqa mashhurdur, vale mufrit sovuqlari bordur.*
6	Lisoniy	*O'n bir-o'n ikki lafz bila Kobul viloyatida talaffuz qilurlar: arabiy, forsiy, turkiy, mug'uliy, hindiy, afg'oniy, pashoyi, gabriy, barakiy, lamg'oniy. Muncha muxtalif aqvom va mutag'oyir alfoz ma'lum emaskim, hech viloyata bo'lg'ay.*

Jadval muallif tomonidan "Boburnoma" asari asosida tuzilgan.

Shuningdek, 1505 yili Kobulning shimolida bo'lgan zilzilani Bobur bunday tasvirlagan: "*Andoq zilzila bo'ldikim, q'orgonning fasllari va bog'larning tomlari aksari*

BO'LIMI
ASLIGA TO'G'RI

yiqilib, shaharda va kentlarda ko'p uylar hamvor bo'lub, uy va tom ostig'a qolib olgan bisyor bo'ldi. Pamg'on kentining uylari tamom yiqildi. Yetmish-sakson obdon kad xudolar tom ostig'a qolib o'ldular. Pamg'on bila Bektut orasida bir parcha yer kim arzi birgina tosh otimi bo'lgay uchub, bir o'q otimi quyi bordi. Uchqan yerning o'rnudan chashmalar paydo bo'ldi. Istarg'itchin Maydong'acha, taxminan olti-yetti yig'och yo'l bo'lg'ay, yer andoq yorilib edikim, ba'zi tarafi belcha baland bo'lur edi, ba'zi tarafi belcha past, yorilgan yerga ba'zi yerda kishi sig'ar edi. Zilzila bo'lgon zamon jami tog'larning boshidan gardlari qoptu. Nurullo tanburchi qoshimda soz chaladur edi, yana bir soz ham bor edi, o'shal zamon har ikki sozini ilgiga oldi, andoq baxtiyor bo'ldikim, sozlar bir-biriga urundilar... Tepadagi uylar aksar tup-tuz bo'ldi. O'shal kun o'ttuz uch qatla yer tebrandi. Bir oycha har kecha-kunduzda ikki va uch qatla yer tebranur edi".

Boburning bu tasviridan zilzilaning kuchi 9-10 ballga yetganligini tushunish qiyin emas. Ma'lumki, Kobul atroflari aktiv seysmik zonaga kiradi, chunki bu yerdagi tog'lar (Hindikush tog' sistemasi) haligacha shakllanayotgan yosh burmali tog'lardir [2; 197-b].

Xulosa. Nomlar poytaxt shaharlar va mamlakatlarga o'z-o'zidan, stixiyali (rejasiz) tarzda qo'yilavermaydi. Ularning nomlanishida tabiat va jamiyatning uyg'unligiga muvofiq keladigan, muayyan hududlarda yashagan va yashayotgan aholining turmush tarzi, ruhiyati, etnografiyasi, nomlanish davrida mavjud bo'lgan tilning qonun-qoidalariga amal qilingan holda qo'yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boburnoma / Vaqoe'. Zahiriddin Muhammad Bobur. – T.: «Yangi nashr», 2019, - 448 b.
2. H.Hasanov. Sayyoh olimlar. T.: "O'zbekiston", 1981. – 262-b.

Mo'minov D.G'.*

(Qo'qon davlat pedagogika instituti, O'zbekiston)

"BOBURNOMA"NING GEOGRAFIK JIHATLARI

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ «БАБУРНАМЫ»

GEOGRAPHICAL ASPECTS OF "BABURNAMA".

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot ishi shoh, shoir, geograf Zaxiriddin Muhammad Boburning ilmiy – geografik merosiga bag'ishlanadi. Unda "Boburnoma" asarida keltirilgan tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy geografik ob'yektlar va jarayonlar haqida ma'lumotlar berilgan.*

Аннотация. *Данная исследовательская работа посвящена научно-географическому наследию короля, поэта, географа Захириддина Мухаммада Бабура. Содержит сведения о природных, социально-экономических географических объектах и процессах, упомянутых в произведении «Бобурнома».*

Annotation. *This research work is devoted to the scientific and geographical heritage of Horn, poet, geographer Zakhiriddin Muhammad Babur. Contains information about natural, socio-economic geographical objects and processes mentioned in the work "Boburnoma".*

Kalit so'zlar: *geografik ob'yektlar, geografik jarayonlar, aholi, suv, tuproq, iqlim.*

Ключевые слова: *географические объекты, географические процессы, население, вода, почва, климат.*

Key words: *geographical objects, geographical processes, population, water, soil, climate.*

* Mo'minov Doniyor G'ulomovich – Qo'qon davlat pedagogika instituti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi dotsenti, g.f.n.

ASLIGA TO'G'RI

MUNDARIJA:
ОГЛАВЛЕНИЕ:
CONTENTS:

1-sho'ba: ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR DAVRI 8
Ahmadaliyev Y.I. Zahiriddin Muhammad Boburning jahon geografiya fani rivojiga qo'shgan xissasi 8
Xakimov K.M., Usmanov M.R. Bobur Mirzo bog'larining tarixi va geografiyasi haqida. 12
Nizamiyev A.G. Zahiriddin Muhammad Babur - Scientist of Geography. 16
Xamidov A.A., Abdurahmonov D.M. Temuriylar davrida geografiya. Zahriddin Muhammad Bobur va uning "Bobirnoma"asari. 19
Qambarov A.A. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari haqida ayrim mulohazalar. . . 23
Xolmatov Sh., Nazaraliyeya O., Ismoiljonova M. Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy geografik merosi. 27
Xamidov A.A. Geografiya fanining dinamikasi: davr kashfiyotlari va rivojlanish yo'nalishlari. 29
2-sho'ba: ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING TABIIY FANLAR RIVOJIGA QO'SHGAN XISSASI. 35
Tashov X.R. Zahiriddin Muhammad Bobur va hozirgi ilmiy tabiiy geografiyaning shakllanishi. 35
Сеитова М.У., Madraximov A.E. "Boburnoma" asarida Farg'ona vodiysidagi o'simlik olamining tavsiflanishi. 37
Bayqabilov X.M. "Boburnoma" asarida Kobul shahri va viloyatining tabiiy geografik tavsifi va lisoniy talqini. 39
Mo'minov D.G'. "Boburnoma"ning geografik jihatlari. 41
Xoldorova G.M, Mirzaalimov D.D. "Boburnoma" asaridagi geografik bilimlar tavsifi. 44
Krupochkin E.P., Mamajanov R.I., Otaqulov P.S. Опыт проведения международных исследований: теория и практика сотрудничества. 47
Temirov Z.A. Zahiriddin Muhammad Buburning "Boburnoma" asarida geografik qarashlar. 50
Mahkamov E., Daovlatova F., Nizamiyeva Z., Eminov J. "Boburnoma"da tabiat komponentlari bilan bog'liq terminlar va ularning izohlanishi. 52
Mavlanova S.Sh. The role of Babur Mirza's Scientific Heritage in the development of Natural Sciences. 55
Mamatisakov J., Hakimova Sh., Komilova M., Nazaralieva O. "Boburnoma" asarida keltirilgan ayrim geografik qonuniyatlarni tavsiflanishi. 58
3-sho'ba: ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARIDA IJTIMOIY VA IQTISODIY GEOGRAFIK QARASHLAR. 61
Isayev A.A. Boburnomada Farg'ona vodiysining ayrim shaharlariga geografik tavsif 61
Jumaxanov Sh.Z., Toshpo'latov A.M. Bobur – davlat arbobi: geosiyosat va hududiy strategiya. 65
Abduvaliyev X.A., Dehqonboyeva M.N. "Boburnoma"da hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va uni rivojlantirishga qaratilgan fikrlar haqida. 69
Qo'ziboyeva O.M., Xabibullayeva M.N. Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosida farzand tarbiyasidagi o'rni. 73
Xoliqov R.Y., Saidaliyeva L. Bobur davrining sakral obyektlari. 75
Mirislomov M.M. Harbiy geografiyaning rivojlanishida "Boburnoma" asarining o'rni. 77
Maxkamov E.G'. Zamonaviy sayyohlik va uni tashkil etishda tarixiy manbaalardan 78

ASLIGA TO'G'RI